Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minl...

3. N.Toshmamatov, I. Ismanov / Darslik: T.: Toshkent “Sano-standart” nashriyoti, 2019. – 560 bet.
4. Buxgalteriya hisobi nazariyasi [Matn]: darslik / B.I.Isroilov, R.O.Xolbekov. – Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2020. 240 bet.
5. T 71 Buxgalteriya hisobi nazariyasi [Matn] : darslik. T. Toshmamatov. – Toshkent: “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2019. – 376 bet.

## INVENTARIZATSIYA O‘TKAZISHNING AHAMIYATI VA QOIDALARI.

**Qosimova Nilufarxon Chinberdiyevna**
*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Andijon fakulteti,*
*“Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi*.
**Olimov Abduvosid Hayotjon o’g’li**
*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti*
*Andijon fakulteti 2-bosqich talabasi*.

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda inventarizatsiyaning ahamiyati, maqsadlari, asosiy tamoyillari va uni o‘tkazishning asosiy qoidalari yoritiladi. Tashkilotlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash va mulk ustidan nazoratni kuchaytirish uchun inventarizatsiya zarurligi asoslab beriladi. Shuningdek, inventarizatsiya jarayonida rioya qilinishi lozim bo‘lgan qoidalar va hujjatlar bo‘yicha aniq tavsiyalar taqdim etiladi. Maqola inventarizatsiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish bo‘yicha amaliy yo‘l-yo‘riq bo‘lib, tashkilotlarning moliyaviy faoliyatida ishonchli vosita bo‘lib xizmat qiladi.

**Аннотация:** В данной дипломной работе описаны значение, цели, основные принципы и основные правила проведения инвентаризации. Обоснована необходимость проведения инвентаризации для обеспечения финансовой устойчивости организаций и усиления контроля за имуществом. Также даются конкретные рекомендации относительно правил и документов, которых следует придерживаться в процессе инвентаризации. Статья представляет собой практическое руководство по успешному осуществлению процесса инвентаризации и служит надежным инструментом в финансовой деятельности организаций.

**Abstract:** This thesis describes the importance, goals, main principles and basic rules of conducting the inventory. The need for inventory to ensure financial stability of organizations and strengthen control over property is justified. Also, specific recommendations are provided regarding the rules and documents that should be



Published: 24.05.2025
**Cite this article:** Qosimova Nilufarxon Chinberdiyevna, Olimov Abduvosid Hayotjon o’g’li (2025). Inventarizatsiya o‘tkazishning ahamiyati va qoidalari. Emro Science and Education, 2(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/345
*© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.*

followed during the inventory process. The article is a practical guide to the successful implementation of the inventory process and serves as a reliable tool in the financial activities of organizations.

**Kalit so‘zlar:** inventarizatsiya, moliyaviy hisobot, mulk nazorati, buxgalteriya, aktivlar va majburiyatlar, hujjatlashtirish, qoidalar.

**Ключевые слова:** инвентаризация, финансовая отчетность, контроль имущества, бухгалтерский учет, активы и пассивы, документация, правила.

**Keywords:** inventory, financial reporting, property control, accounting, assets and liabilities, documentation, rules.

Har qanday tashkilotning moliyaviy barqarorligi va qonuniy faoliyati uning mulki va majburiyatlarini to‘g‘ri hisobga olishga bog‘liq. Moliyaviy hujjatlar ishonchliligini ta’minlashda inventarizatsiya muhim vositalardan biridir. Inventarizatsiya — buxgalteriya hisobidagi ma’lumotlarni tashkilotdagi mavjud aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy holati bilan solishtirish jarayonidir. Ushbu jarayon orqali mol-mulk holatini aniqlash, noqonuniy harakatlarning oldini olish va hisob-kitoblarni aniqlik bilan yuritish imkoniyati yaratiladi.

Inventarizatsiya, avvalo, tashkilotning moliyaviy hisobotlari haqiqiy va ishonchli bo‘lishini ta’minlaydi. Hisob-kitobda mavjud xatoliklar yoki buzilishlar moliyaviy ko‘rsatkichlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa nafaqat ichki boshqaruvga, balki investorlar, kreditorlar va soliq organlari bilan munosabatlarga ham zarar keltirishi mumkin.

Shuningdek, inventarizatsiya mol-mulk holatini va harakatini kuzatib borish uchun samarali vositadir. Uskuna, inventar va boshqa aktivlarning to‘g‘ri hisobini yuritish orqali tashkilot o‘z resurslarini yanada samarali boshqarishi mumkin. Shu bilan birga, yo‘qotish yoki noqonuniy foydalanishning oldini olishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Inventarizatsiya orqali ichki nazorat tizimi tahlil qilinadi va takomillashtiriladi. Bu esa boshqaruv jarayonlarida shaffoflikni oshirishga xizmat qiladi.

Yana bir etiborli jihati, Ko‘plab mamlakatlarda korxonalar moliyaviy faoliyatini qonuniy ravishda olib borish uchun inventarizatsiya o‘tkazishi shart. Ayniqsa, soliq organlari tomonidan qo‘yiladigan talablarni bajarish uchun bu jarayon muhimdir.

O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 14 iyundagi 141-son buyrug’iga asoslanib, inventarizatsiya o’tkazishning umumiy qoidalari quyidagilardan iborat.

1.Mazkur Buxgalteriya hisobining milliy standarti O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq ishlab

chiqilgan va O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini normativ tartibga solish elementi bo‘lib hisoblanadi.

2. Mazkur BHMS xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar va asosiy faoliyati byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarda aktivlar va majburiyatlarni inventarizasiyadan o‘tkazish hamda uning natijalarini rasmiylashtirish tartibini belgilaydi.

3. Quyidagilar inventarizasiyaning asosiy maqsadlari hisoblanadi:
mol-mulkning haqiqatda mavjudligini aniqlash; haqiqatda mavjud mol-mulkni buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan solishtirish; majburiyatlar buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirilganligini tekshirish.

4. Tashkilotning joylashgan joyidan qat'i nazar barcha aktivlari va majburiyatlari inventarizasiya qilinadi. Ishlab chiqarish zaxiralari va tashkilotga qarashli bo‘lmagan, lekin buxgalteriya hisobida qayd etilgan boshqa turdagi mol-mulklar (mas'ul saqlashda bo‘lgan, ijaraga olingan, qayta ishlash uchun olingan), shuningdek biror-bir sababga ko‘ra hisobga olinmagan mol-mulk inventarizasiya qilinishi kerak.
Mol-mulkni inventarizasiyadan o‘tkazish uning joylashgan joyi va moddiy javobgar shaxs bo‘yicha o‘tkaziladi.

5. Quyidagi hollarda inventarizasiyadan o‘tkazish majburiy hisoblanadi: mol-mulk ijaraga berilganda, sotib olinganda, sotilganda, shuningdek qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda davlat korxonasini o‘zgartirishda (davlat tasarrufidan chiqarilganda); yillik moliyaviy hisobotni tuzish oldidan, bundan hisobot yilining 1 oktyabridan keyin inventarizasiyadan o‘tkazilgan mol-mulk mustasno. Tovar-moddiy zahiralar bir yilda kamida bir marta inventarizasiyadan o‘tkaziladi Asosiy vositalar ikki yilda kamida bir marta, kutubxona fondlari esa besh yilda bir marta inventarizasiyadan o‘tkaziladi. Pul mablag‘lari, pul hujjatlari, qiymatliklari va qat'iy hisobdagi blanklari oyda bir marta, yonilg‘i-moylash materiallari va oziq-ovqat mahsulotlari har chorakda, qimmatbaho metallar qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlarda inventarizasiyadan o‘tkaziladi. Ishlab chiqarish zaxiralari quyidagi hollarda inventarizasiyadan o‘tkaziladi: asosiy vositalar va tovar-moddiy zaxiralar qayta baholanganda; moddiy javobgar shaxslar almashganda (ishlarni qabul qilish – topshirish kunida); o‘g‘irlik yoki suiiste'mol qilish, shuningdek qiymatliklarni buzilishi faktlari aniqlanganda; tabiiy ofatlar, yong‘inlar, falokatlar yoki g‘ayritabiiy sharoitlar yuzaga keltirgan boshqa favqulodda vaziyatlar yuz berganda;
tashkilot tugatilganda (qayta tashkil etilganda) tugatish (ajratish) balansini tuzish oldidan va qonunchilik hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

6. Umumiy (jamoaviy) moddiy javobgarlik sharoitida jamoa rahbari o‘zgarganda, jamoadan uning ellik foizdan ortiq a'zolari chiqib ketganda, shuningdek jamoaning bitta yoki bir nechta a'zolari talabi bilan inventarizasiya o‘tkaziladi.

Xulosa qilib aytganda ,Inventarizatsiya tashkilotning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, mulkni nazorat qilish va ichki boshqaruvni kuchaytirish uchun muhim jarayondir. Uni o‘tkazish davomida rejalashtirish, hujjatlashtirish va natijalarni tahlil qilish qoidalariga qat’iy rioya qilish zarur. Inventarizatsiya jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatolarni oldini olish uchun xodimlarni o‘qitish va avtomatlashtirish tizimlarini joriy etish samarali yechim bo‘lishi mumkin. Shu boisdan, har bir tashkilot inventarizatsiyaga e’tibor qaratishi va uni muntazam ravishda o‘tkazib borishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:**

1. “Buxgalteriya xisobi to’g’tisida”gi O’zbekiston Respublikasining Qonuni.
2. Buxgalteriya hisobi milliy standartlari.
3. A.A.Karimov, I.K.Ochilov, Z.U,G’aniyev. Buxgalteriya hisobi. (II-qism). (Darslik). –T.: “Nihol print” OK, 2021. - 684b.
4. N.Toshmamatov, I. Ismanov / Darslik: T.: Toshkent “Sano-standart” nashriyoti, 2019. – 560 bet.
5. Buxgalteriya hisobi nazariyasi [Matn]: darslik / B.I.Isroilov, R.O.Xolbekov. – Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2020. 240 bet.
6. T 71 Buxgalteriya hisobi nazariyasi [Matn] : darslik. T. Toshmamatov. – Toshkent: “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2019. – 376 bet.

## BANK BOSHQARUVI VA AVTOMATLASHTIRISHNI TASHKILLASHTIRISH.

**Yusupov Muxtorjon**
*TDIU Andijon fakulteti dotsenti.*
**Toshboyeva Xusnida Alisherovna**
*TDIU Andijon fakulteti talabasi*

Hozirgi kunda butun dunyo bo’ylab ko’rilayotgan siyosatlardan biri bu bank boshqaruvini avtomatlashtirishni tashkillashtirishni tashkil etish shu kunning global muammolaridan biri.

Ushbu muammoni xal etish maqsadida barcha mamlakatlarning yetakchi olimlari va mutaxassislari turli darajadagi nazariy va amaliy ishlar olib borish bilan bir qatorda o’zlarini fikr,loyixalarini taqdim etishmoqda.